



## KRIMINOGEN VAZIYAT MURAKKAB MAHALLADA HUQUQBUZARLIKLARNING BARVAQT OLDINI OLISH TUSHUNCHASINING TAHLILI

**Ummatov Muhammadrasul Tursunovich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti  
dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa  
doktori(PhD), dotsent  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20607078>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-iyun 2026 yil  
Ma'qullandi: 06-iyun 2026 yil  
Nashr qilindi: 09-iyun 2026 yil

### KEYWORDS

*Kriminogen vaziyat, murakkab mahalla, huquqbuzarlik, barvaqt oldini olish, jinoyatchilik profilaktikasi, profilaktika inspektori, jamoat xavfsizligi.*

### ABSTRACT

*Maqolada kriminogen vaziyati murakkab bo'lgan mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi, uning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan mahalla hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish, profilaktika inspektorlari va jamoatchilik institutlarining hamkorligi hamda huquqbuzarlik keltirib chiqaruvchi omillarni oldindan aniqlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, kriminogen muhitni sog'lomlashtirish va aholi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Zamonaviy jamiyatda kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish masalasi huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy hokimiyat va butun jamiyat uchun eng dolzarb va murakkab vazifalardan biriga aylangan. Kriminogen vaziyat deganda muayyan hududda jinoyatchilikning yuqori darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar (ishsizlik, daromadning pastligi, qashshoqlik), oilaviy ziddiyatlar, yoshlar orasidagi bo'sh vaqtni samarasiz tashkil etish, ekologik va madaniy omillar hamda boshqa salbiy sharoitlarning murakkab uyg'unlashuvi tushuniladi<sup>1</sup>. Bunday mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tushunchasi jinoyatni sodir etilishidan ancha oldin uning sabab va sharoitlarini chuqur aniqlash, bartaraf etish hamda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan kompleks, ilmiy asoslangan va proaktiv yondashuvni nazarda tutadi. Bu tushuncha reaktiv (jinoyat sodir bo'lgandan keyin choralar ko'rish) yondashuvdan tubdan farq qiladi va jinoyatni sodir bo'lish imkoniyatini oldindan bartaraf etishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasida mahalla instituti jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda markaziy rol o'ynaydi. Professor Isomiddin Ismoilov yangi O'zbekistonda kriminologik tadqiqotlarning rivojlanishi, jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini chuqur o'rganish hamda milliy profilaktika tizimini takomillashtirish

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "“gi PQ-1-son qarori. Eletron manba: <https://lex.uz/uz/docs/-7330260>. Murojaat vaqti: 28.05.2026-yil.

zarurligini alohida ta'kidlagan. U milliy qadriyatlar va mahalla institutiga asoslangan holda huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishni taklif etadi<sup>2</sup>.

Shu mavzuda chuqur tadqiqot olib borgan o'zbek olimi Umarov Zakir Ravupovich "Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ayrim mulohazalar" maqolasida bunday hududlarda manzilli va kompleks choralar zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning fikricha, murakkab kriminogen mahallalarda oddiy umumiy choralar yetarli emas, balki har bir mahallaning o'ziga xos xususiyatlarini (aholi zichligi, infratuzilma holati, ijtimoiy muammolar) hisobga olgan holda individual monitoring, xavf guruhidagi shaxslarni erta aniqlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini joriy etish lozim<sup>3</sup>.

Z.R.Umarovning tadqiqotida Janubiy Koreya tajribasini tahlil qilib, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini taklif etgan. Unda mahallalarda ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, infratuzilmani yaxshilash va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali huquqbuzarliklarni sezilarli darajada kamaytirish mumkinligi ko'rsatilgan<sup>4</sup>.

Xalqaro tajribada R.V.Clarkening **situational crime prevention** (vaziyatli jinoyat oldini olish) nazariyasi katta ahamiyatga ega. Bu nazariyaga ko'ra, jinoyat muayyan joy, vaqt va imkoniyatlar mavjud bo'lganda sodir bo'ladi. Shuning uchun jinoyat imkoniyatlarini kamaytirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish samarali yo'l hisoblanadi<sup>5</sup>. David Weisburdning "hot spots" konsepsiyasi esa jinoyatlarning nisbatan oz sonli hududlarda to'planishini isbotlaydi va resurslarni aniq yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu xalqaro yondashuvlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali mahallalarda samarali profilaktika tizimini shakllantirish mumkin.

Qozog'iston Respublikasida ham bu masala dolzarb bo'lib, qozoq olimi A.Kh.Mindagulov "Crime Prevention" asarida jinoyat oldini olishda ijtimoiy va huquqiy choralarning uyg'unligini ta'kidlagan<sup>6</sup>. E.I.Kairzhanova va T.K.Akimzhanov mahalliy darajada (aullar va tumanlarda) huquqbuzarliklarning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shganlar. Ularning tadqiqotlarida jamoatchilikni faol jalb qilish, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni huquqiy profilaktika bilan birlashtirish zarurligi alohida ko'rsatilgan<sup>7</sup>. E.O.Alaukhanova oilaviy va jamoaviy profilaktika choralarining integratsiyasini taklif etgan bo'lib, bu tajriba O'zbekiston mahallalari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish

---

<sup>2</sup> Ismoilov I. Kriminologiya va jinoyatchilik: Yangi O'zbekiston huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimi // O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Kriminologiya tadqiqot instituti jurnali. – 2025. – № 1. – B. 3-18.

<sup>3</sup> Umarov Z.R. Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ayrim mulohazalar // CyberLeninka, 2025. – S. 45-52.

<sup>4</sup> Umarov Z.R. Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish mexanizmlari (Janubiy Koreya tajribasi misolida). – 2025. – S. 78-85.

<sup>5</sup> Clarke R.V. Situational Crime Prevention. – 1997. – S. 23-30.

<sup>6</sup> Mindagulov A.Kh. Crime Prevention. – 2005. – S. 112-120.

<sup>7</sup> Е.И. Қайыржанова, Т.К. Акимжанов Жергілікті деңгейдегі құқық бұзушылықтардың алдын алу стратегиялары. – 67-75-6.

tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori mahallalarni kriminogen holati bo'yicha toifalash (qizil, sariq, yashil) tizimini joriy etishni nazarda tutadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, profilaktika ishlarini kuchaytirish natijasida ayrim hududlarda jinoyatchilik ko'rsatkichlari pasaygan bo'lsa-da, murakkab mahallalarda hali ham oilaviy zo'raonlik, yoshlar orasidagi giyohvandlik va mulkiy huquqbuzarliklar kabi jiddiy muammolar saqlanmoqda.

Oila institutining roli ham beqiyosdir. Niyozova Salomat Saparovna oiladagi zo'raonliklarning oldini olish masalalarini chuqur o'rgangan. Uning tadqiqotida oilaviy zo'raonlikning oldini olish bo'yicha milliy va xorijiy tajribani solishtirib, oilaviy maslahat markazlarini ko'paytirish va huquqiy madaniyatni oshirish zarurligi ta'kidlangan<sup>8</sup>. Bu yondashuv kriminogen mahallalarda oilaviy ziddiyatlarni erta bartaraf etishga yordam beradi.

Barvaqt oldini olish tushunchasining amaliy mohiyati kriminogen vaziyatni doimiy va chuqur monitoring qilish, potensial xavf omillarini erta bosqichda aniqlash, bu omillarning paydo bo'lishi va rivojlanish sabablarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini joriy etishda namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv jinoyatchilikning faqat oqibatlarini bartaraf etish bilan cheklanmaydi, balki uning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, madaniy va muhitaviy ildizlarini chuqur o'rganish va oldini olishga yo'naltirilgan zamonaviy proaktiv profilaktika strategiyasining asosiy tarkibiy qismidir. Kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan mahallalarda bu tushunchani samarali amalga oshirish uchun har bir mahallaning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholining demografik tarkibi, infratuzilma darajasi va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyat mavjud.

Milliy olimlarning so'nggi tadqiqotlarida ushbu masala alohida o'rinda turadi. G.F.Taxirjanovich va G.G.Ibragimovnaning fikricha, kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan mahallalarda ayollarning muammolarini o'rganish va ularga qaratilgan profilaktik ishlarni amalga oshirish masalalarini batafsil tahlil qilganlar. Olimlarning fikricha, bunday mahallalarda ayollar oilaviy zo'raonlik, iqtisodiy qaramlik, ijtimoiy himoyaning zaifligi, huquqiy savodsizlik va doimiy psixologik bosim kabi bir qator omillar ta'sirida ko'proq jabrlanuvchi yoki huquqbuzarga aylanish xavfi yuqori bo'ladi. Shu sababli, mahallalarda ayollar bilan muntazam individual profilaktik suhbatlar o'tkazish, oilaviy maslahat markazlarini har bir mahallada ochish, psixologik va huquqiy yordam xizmatlarini kuchaytirish, ayollarni kasbga o'qitish va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish zarur<sup>9</sup>.

Nazarimizda, bu yondashuv nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilishga, balki oilaviy muhitni sog'lomlashtirish va keyingi avlod tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dotsent T.X.Altmishevning fikricha, hududlarda jinoyatchilikning oldini olish mexanizmlariga bag'ishlangan bir nechta ilmiy ishlarida muhim nazariy va amaliy xulosalarga kelgan. Birinchi tadqiqotida hududlarda jinoyatchilikni oldini olishni amalga oshirish mexanizmlarini tahlil qilib, turli davlat idoralari, mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tuzilmalari

---

<sup>8</sup> Niyozova S.S. Oiladagi zo'raonliklarning oldini olish masalalari // Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy jurnali. – 2025. – № 2. – B. 5-12.

<sup>9</sup> Taxirjanovich G.F., Ibragimovna G.G. Mahallalarda kriminogen vaziyatdan kelib chiqqan holda ayollarning muammolarini o'rganish bo'yicha profilaktik ishlarni amalga oshirish // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – T. 1. – №. 16. – C. 27-30.

o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, profilaktika ishlarini aniq rejalashtirish va monitoring tizimini takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan<sup>10</sup>. Bundan tashqari, hududlarda jinoyatchilikni oldini olish borasidagi tashkiliy-nazorat chora-tadbirlarini chuqur ko'rib chiqib, har bir mahallada samarali nazorat mexanizmlarini yaratish, ularni muntazam baholash va olingan natijalarni tizimli tahlil qilish lozimligini ta'kidlagan<sup>11</sup>. Uchinchi tadqiqotida esa hududlarda jinoyatchilikni oldini olishda qonun ustuvorligini ta'minlash choralari batafsil o'rgangan. Unda huquqiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish, qonun hujjatlarini mahalliy darajada qat'iy bajarish, mas'ul shaxslarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish va huquqiy savodxonlikni oshirish choralari taklif etgan<sup>12</sup>. Bizningcha, dotsent T.X.Altmishevning ishlarida umumiy tendensiya sifatida jinoyatchilikning oldini olishda tizimli, kompleks va doimiy nazorat ostidagi yondashuvning muhimligi alohida qayd etilgan.

S.Q.Abdusalimovichning nazarida, yoshlar orasidagi jinoyatchilikni oldini olishda mahalla institutining rolini maxsus tadqiq etgan. Shayxontohur tumani Bo'ston mahalla fuqarolar yig'ini misolida olib borilgan empirik tadqiqotida "mahalla yettiligi" ning ijtimoiy profilaktika faoliyatini chuqur tahlil qilib, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni huquqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash, xavf guruhidagi o'smirlarni erta aniqlash, ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish va kasb-hunarga yo'naltirish orqali yoshlar orasidagi jinoyatchilikni sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini amaliy misollar bilan isbotlagan<sup>13</sup>. Bu tadqiqot mahalla yettiligining real hayotdagi samaradorligini ko'rsatuvchi muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sirini chuqur hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Ishsizlik, daromadning pastligi, ijtimoiy tengsizlik va aholining turli qatlamlari o'rtasidagi keskin tafovutlar huquqbuzarlik uchun qulay muhit yaratadi. Shu bois, mavjud ijtimoiy dasturlarni ("Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftar") huquqiy profilaktika choralari bilan uzviy birlashtirish, xavf guruhidagi shaxslarni nafaqat ro'yxatga olish, balki ularni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Shuningdek, hududlarda jinoyatni oldini olish tamoyini mahallalarda keng qo'llash ham muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Bu tamoyillar doirasida ko'chalarni yoritishni yaxshilash, videokuzatuv tizimlarini kengaytirish, ochiq maydonlarni tartibga solish, uy-joy qurilishida xavfsizlik standartlarini qat'iy hisobga olish va jamoat joylarini loyihalashda jinoyat imkoniyatlarini minimallashtirish choralari ko'rish lozim.

---

<sup>10</sup> Алтмишев Т.Х. Худудларда жиноятчиликни олдини олишни амалга ошириш механизмлари // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2026. – Т. 6. – №. 2. – С. 44-49.

<sup>11</sup> Алтмишев Т.Х. Худудларда жиноятчиликни олдини олиш борасидаги ташкилий-назорат чора-тадбирлар // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2026. – Т. 5. – №. 2. – С. 109-112.

<sup>12</sup> Алтмишев Т.Х. Худудларда жиноятчиликни олдини олишда қонун устуворлигини таъминлаш чоралари // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2026. – Т. 3. – №. 2. – С. 60-63.

<sup>13</sup> Абдусалимович С.Қ. Ёшлар ўртасида содир этиладиган жиноятларнинг олдини олишда "махалла еттилиги" нинг ижтимоий профилактикаси фаолияти (Шайхонтохур тумани Бўстон мфй мисолида) // Modern education and development. – 2026. – Т. 49. – №. 1. – С. 112-121.

Mahallalarda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish barvaqt oldini olishning ajralmas tarkibiy qismidir. "Mahalla posbonlari" institutini rivojlantirish, "Yoshlar maslahati" faoliyatini faollashtirish, fuqarolar yig'inlarining profilaktika ishlaridagi rolini oshirish va aholini faol jalb qilish orqali ijtimoiy nazoratni sezilarli darajada kuchaytirish mumkin.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, xususan GIS tizimlari yordamida risk xaritalarini yaratish, jinoyatchilikning "issiq nuqtalari"ni aniqlash va kelgusidagi holatni prognozlash profilaktika ishlarining ilmiy asoslanganligi va samaradorligini keskin oshiradi. Zamonaviy jamiyatda kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish masalasi huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy hokimiyat va butun jamiyat uchun eng dolzarb va murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Kriminogen vaziyat deganda muayyan hududda jinoyatchilikning yuqori darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar (ishsizlik, daromadning pastligi), oilaviy ziddiyatlar, yoshlar orasidagi bo'sh vaqtni samarasiz tashkil etish, ekologik va madaniy omillar hamda boshqa salbiy sharoitlarning murakkab uyg'unlashuvi tushuniladi. Bunday mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tushunchasi jinoyatni sodir etilishidan ancha oldin uning sabab va sharoitlarini chuqur aniqlash, bartaraf etish hamda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan kompleks, ilmiy asoslangan va proaktiv yondashuvni nazarda tutadi. Bu tushuncha reaktiv choralardan farqli o'laroq, jinoyat sodir bo'lish imkoniyatini oldindan bartaraf etishga asoslanadi.

Yurtimizda mahalla instituti jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Mahallalarda profilaktika ishlarini kuchaytirish, xonadonbay va fuqarobay suhbatlar o'tkazish, xavf guruhidagi shaxslarni erta aniqlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini joriy etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish mumkin. Barvaqt oldini olish tushunchasining mohiyati shundaki, u jinoyat sodir bo'lgandan keyingi choralarni emas, balki sabablarni erta bosqichda bartaraf etishni maqsad qiladi. Bu yerda atrof-muhit orqali jinoyatni oldini olish tamoyillari, videokuzatuv tizimlarini kengaytirish, ko'chalarni yoritishni yaxshilash va mahalla muhitini jinoyatchilikka qarshi qulay shaklga keltirish muhim ahamiyatga ega.

Kriminogen vaziyatni baholashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni keskin oshiradi. Geografik axborot tizimlari yordamida risk xaritalarini yaratish, jinoyatchilikning "issiq nuqtalari"ni aniqlash va kelgusidagi holatni prognozlash imkonini beradi. Mahallalarda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, "Mahalla posbonlari" va "Yoshlar maslahati" institutlarini rivojlantirish orqali ijtimoiy nazoratni oshirish ham barvaqt oldini olishning muhim tarkibiy qismidir.

Mintaqaviy tajribani tahlil qilganda, qo'shni davlatlar olimlarining fikrlari katta ahamiyatga ega. Qozog'istonda A.Kh.Mindagulov jinoyatni oldini olishda ijtimoiy va huquqiy choralarning uyg'unligini ilmiy jihatdan asoslab, murakkab kriminogen hududlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash va infratuzilmani jinoyatchilikka qarshi moslashtirish zarurligini ta'kidlagan<sup>14</sup>. E.O.Alaukhanova oilaviy va jamoaviy profilaktika choralarning

<sup>14</sup> Миндагулов А.Х. Қылмыстың алдын алу. – 2005. – Б. 112-120.

integratsiyasini taklif etib, oilaviy ziddiyatlarni erta bartaraf etish va mahalliy jamoatchilikni faol jalb qilish orqali huquqbuzarliklarni kamaytirish mumkinligini asoslagan<sup>15</sup>.

Qirg'izistonda L.Ch. Sadykova va B.G. Tugelbaeva mahalliy jamoalar orqali yoshlar va oilaviy jinoyatchilikning oldini olish masalalarini chuqur o'rganganlar. Olimlarning fikricha, mahalliy jamoalar orqali ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va oilaviy muammolarni erta hal etish orqali kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish mumkin<sup>16</sup>. Ular migratsiya va ishsizlik kabi omillarning kriminogen vaziyatga kuchli ta'sirini ta'kidlaganlar.

Tojikistonda Yuldoshev Rifat Rahmadjonovich va hamkorlari chekka va tog'li hududlarda kriminogen vaziyatni tahlil qilib, mahalliy jamoalar va huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligini kuchaytirishni taklif etganlar. Olimlar repressiv choralarga emas, balki ijtimoiy, ta'limiy va profilaktik choralarga ustuvorlik berish zarurligini ta'kidlaganlar<sup>17</sup>.

Ushbu mintaqaviy tajribani tahlil qilganda, yurtimizdagi mahalla yettiligi, raqamli monitoring va xonadonbay ishlar tajribasi Markaziy Osiyoda yetakchi model sifatida ko'rinadi. Shu bilan birga, qo'shni davlatlarning oilaviy profilaktika, jamoaviy nazorat va geografik omillarni hisobga olish tajribasini o'rganish milliy tizimni yanada takomillashtirishga yordam beradi.

Kriminogen vaziyat murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda individual va jamoaviy yondashuvlarning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Profilaktika inspektorlarining mas'uliyatini oshirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va natijadorlikni baholash mexanizmlarini joriy etish lozim. Iqtisodiy muammolarni hal etish, yoshlarni kasbga o'qitish va sport infratuzilmasini rivojlantirish orqali huquqbuzarlikka moyillikni kamaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kriminogen vaziyat murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tushunchasi kompleks, ilmiy asoslangan va jamoatchilikni jalb qilgan yondashuvni talab etadi. Yurtimizda bu tushunchani amalda qo'llashda milliy va mintaqaviy tajribani birlashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va profilaktika ishlarini ilmiy asosda baholash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Shu bois, yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi ta'rifni berishni j topdik. Jumladan, kriminogen vaziyat murakkab mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tushunchasi — bu muayyan hududda jinoyatchilikning yuqori darajasi va ijtimoiy muhitning salbiy holati mavjud bo'lgan mahallalarda jinoyatni sodir etilishidan oldin uning sabab va sharoitlarini chuqur aniqlash, bartaraf etish, xavf omillarini kamaytirish hamda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan kompleks, proaktiv va ilmiy asoslangan yondashuvdir.

Ushbu tushunchani quyidagilar bilan tahlil qilishni joiz topdik. Bular:

---

<sup>15</sup> Алауханова Э.О. Отбасылық және ұжымдық алдын алу шараларының интеграциясы // Қазақстан Республикасы Жоғарғы Сотының ғылыми журналы. 2023. – № 4. – Б. 45-53.

<sup>16</sup> Садықова Л.Ч., Түгелбаева Б.Г. Жастар және отбасылық қылмыстылықтың алдын алу мәселелері // Қырғызстан Ұлттық университетінің ғылыми хабаршысы. 2024. – № 2. – Б. 67-76.

<sup>17</sup> Юлдашев Р.Р., Сафарзода А.И., Махмадзода Н. Состояние преступности в Таджикистане // Научный журнал Таджикского национального университета. – 2022. – ## 3. – С. 88-96.

birinchidan, bu tushuncha proaktiv (oldini olishga yo'naltirilgan) xarakterga ega. Ya'ni, u jinoyat sodir bo'lgandan keyin choralar ko'rish (reaktiv yondashuv) o'rniga, jinoyatni sodir bo'lishiga olib keladigan sabab va sharoitlarni erta bosqichda aniqlash va bartaraf etishga asoslanadi. Masalan, oilaviy ziddiyatlar, ishsizlik, yoshlar orasidagi nazoratsizlik va muhitning jinoyatchilikka qulayligini oldindan bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishni nazarda tutadi;

ikkinchidan, tushuncha kompleks va ko'p tomonlama xususiyatga ega. U nafaqat huquqiy choralarni, balki ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va jamoaviy choralarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, mahallada videokuzatuv o'rnatish, yoshlarni kasbga o'qitish (iqtisodiy), oilaviy maslahat markazlarini ochish (psixologik) va "mahalla yettiligi" orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish (ijtimoiy) kabi birgalikdagi choralar tizimini talab etadi;

1. uchinchidan, bu tushuncha manzilli va differensial xususiyatga ega. Har bir mahallaning o'ziga xos kriminogen holatini (qizil, sariq, yashil toifalar) hisobga olgan holda, individual va guruh yondashuvlarni qo'llashni talab qiladi. Masalan, bir mahallada oilaviy zo'ravonlik ustun bo'lsa, ikkinchisida yoshlar orasidagi giyohvandlik muammosi bo'lishi mumkin — har biriga mos maxsus profilaktika dasturlari ishlab chiqiladi.



INNOVATIVE  
ACADEMY